

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QURBONOVA FERUZA MAXAMATJON QIZI

**TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA NAMOYON
BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по психологии**

**Table of Contents of the Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
Dissertation in Psychology**

Qurbonova Feruza Maxamatjon qizi

Talabalarda kasbiy identifikatsiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....3

Курбанова Феруза Махаматжон кизи

Психологические особенности проявления профессиональной идентификации у студентов.....23

Kurbanova Feruza Makhamatjon kizi

Psychological characteristics of the manifestation of professional identity in students47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QURBONOVA FERUZA MAXAMATJON QIZI

**TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA NAMOYON
BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/P1207 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turg'unov Abdurashid Abdumannopovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

To'raxonov Abdukarim Eshqo'ziyevich
psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___»_____kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy globallashtirish jarayonlari, texnologik yutuqlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mehnat bozorida keskin o'zgarishlarga olib kelmoqda. 2021-yil noyabr oyida UNESCO Tashkilotining "Future of Education Global" loyihasining yuqori darajadagi mustaqil xalqaro komissiyasi tomonidan "A New Social Contract for Education" sarlavhasi ostida chop etilgan hisobotida zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining nafaqat bozor talablariga mos mutaxassis tayyorlashi, balki yosh avlodda o'z kasbiy rolini anglashi, o'zini kasbiy faoliyatda erkin va mas'uliyatli etib, o'z qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilishi zarurligi qayd etilgan¹. Bu borada jahon miqyosidagi nufuzli universitetlarda taxsil olayotgan talabalarni individual psixologik xususiyatlarini shakllantirish hamda kelgusi kasbiy faoliyatida, zamon talablariga mos ravishda tayyorlanishi, yuklatiladigan vazifalarga ijodiy yondashishi, o'z-o'zini anglashi va rivojlantirishi zarurati dolzarb muammo sifatida qo'yilmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida inson kapitali va kasbiy tayyorgarlik masalalari jahon ilmiy hamjamiyati e'tiborida markaziy o'rinni egallamoqda. Bu borada yoshlar, ayniqsa talabalarning o'z kasbiga nisbatan o'zini anglashi, uni qadrlashi, kasbiy identifikatsiyasi va kasbiy faoliyatda o'z o'rnini topishi - zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ustuvorlik-prioritet sifatida qaralmoqda. S.Holland, U.Savickas (2013), G.Richard (2016) kabi yetuk psixologlar tomonidan o'rganilgan fenomen – "kasbiy identifikatsiya" bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, aynan talabalik davri kasbiy o'zlikni aniqlash va ijtimoiy faoliyatda o'z o'rnini topishdagi eng muhim hayotiy bosqich sifatida qayd etilgan. OECD tomonidan 81 mamlakatda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning taxminan 39% kasbiy rejalari aniq emasligi aniqlangan². Shunga bog'liq ravishda kasbiy rivojlanish motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, uning turlicha namoyon bo'lishini ochib berish imkoniyatini beradigan zarur empirik tadqiqotni olib borish va ilmiy jihatdan takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va talaba yoshlarda yuksak bilim va iste'dodni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatining shakllantirilishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: "Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli talabalarni qo'llab quvvatlash hamda rag'batlantirish"³ vazifalariga asoslanib, shaxsda kasbiy identifikatsiya xususiyatlarini namoyon bo'lishi va takomillashishi yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish, yangicha nazariy yechimlarni topishga zaruriy asos bo'la oladi.

¹<https://iite.unesco.org/ru/professionalnoe-razvitie-uchitelej-na-osnove-innovatsionnoj-pedagogiki-ikt/>

² <https://www.marketresearch.com/Global-Industry-Analysts-v1039/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»,

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlar, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son «Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaror, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son «Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyoda faoliyat ko‘rsatib, o‘z asarlari, xizmatlari va ijodi bilan tarixda iz qoldirgan va kasbiy rivojlanish g‘oyalari orqali fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan buyuk shaxslardan Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Koshifiy, Ahmad Yugnakiy kabi allomalarning asarlari va g‘oyalari; O‘zbekiston pedagog va psixolog olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, N.D.Ahmedova, R.Z.Asamova, Y.M.Asadov, R.H.Jo‘raev, U.Inoyatov, T.Karimov, K.B.Qodirov, O.Qo‘ysinov, B.Rahmonov, R.B.Rasuleva, H.F.Rashidov, H.R.Sanoqulov, N.I.Taylaqov, A.E.To‘raxonov, O‘.Q.Tolipov, L.S.Tursunov, R.I.Sunnatova va boshqalar kasbiy identifikatsiya muammolaridan kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy shakillanish, shaxsiy-kasbiy xususiyatlar, kasb tanlashga munosabat, kasbiy motiv va motivatsiya, kasbiy kompetentlik, kasbiy muvaffaqiyat, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, kasbiy stress, kasbiy mas‘uliyat, kasbiy refleksiya, kasbiy zo‘riqishlar masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan V.S.Ageev, N.V.Antonova, G.Brekvell, S.A.Gaponova, N.L.Ivanova, D.A.Kartavsev, A.A.Krivoshein, S.G.Lovkov, J.J.Muskina, N.S.Pryajnikov, L.A.Yerashkov L.B.Shneyder va boshqalarning kasb tanlash, kasbiy niyatlar, kasbiy motiv, motivatsiya, kasbiy muvaffaqiyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy sohalarga bo‘lgan tanlov imkoniyatlari muammosi ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Xorij mutaxassislari va psixolog olimlaridan E.Erikson, E.F.Zir, J.Lacan, J.Mid, J.Tyorner, L.B.Shnayder, O.Fenixel, G.Tejfel va boshqalar tomonidan kasb tanlash, kasbiy motiv, kasbiy motivatsiyasi, kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy o‘zini baholash, kasbiy identifikatsiyalash sohasining tarkibiy komponentlarini namoyon

bo'lishi, talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanish jarayonini shakllanishiga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F24-1-raqamli "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" (2020-2023-y.y.) ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Talabalarda kasbiy identifikatsiya nomoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaxsda kasbiy identifikatsiyalanish jarayonini namoyon bo'lishiga xizmat qiluvchi kasbiy motivatsiyani shakllantiruvchi xususiyatlarni aniqlash;

talabalik davrida kasbiy faoliyatning turli sohalariga bo'lgan qobiliyat hamda shaxsda kasbiy identifikatsiyani shaxsiy psixologik omillar ta'sirida namoyon bo'lishini aniqlash;

talabalik davrida ijtimoiy o'zaro aloqalarni rivojlantirish va kasbiy identifikatsiyalanish jarayonini refleksiv jarayonlar bilan aloqadorligini aniqlash;

talabalik davrida kasbiy o'zini o'zi anglash, kasbiy me'yorlar va qiymatlarni o'rgatish, kasbiy ustanovkalarni barqaror shakllantirish orqali kasbiy faoliyatda muhim bo'lgan qadriyatlarni o'rgatish, shuningdek, kasbiy identifikatsiyaning asosiy jihatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida talabalarda kasbiy identifikatsiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotda Farg'ona Davlat universitetidan 71 nafar (boshlang'ich ta'lim yo'nalishi), 31 nafar (matematika ta'lim yo'nalishi) talabalari, Termiz davlat universitetidan 31 nafar (boshlang'ich ta'lim yo'nalishi), 59 nafar (geografiya ta'lim yo'nalishi), 63 nafar (matematika ta'lim yo'nalishi) talabalari, Andijon davlat pedagogika institutidan 33 nafar (pedagogika ta'lim yo'nalishi), 38 nafar (biologiya ta'lim yo'nalishi), 47 nafar (matematika ta'lim yo'nalishi) talabalari, jami 373 nafar talabalar respondentlar sifatida jalb etildi.

Tadqiqot predmeti talabalarda kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo'lishiga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyatlar, shaxsning kasbiy o'zini anglash darajasi, kasbiy motivatsiya, ijtimoiy ta'sirlar, individual psixologik xususiyatlar va bu omillarning o'zaro bog'liqligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, A.Azbelning "Kasbiy identifikatsiya darajasini o'rganish", Tomas Kilmanning "Ziddiyatli vaziyatlarda xulq-atvor ko'rinishlari anketasi", R.Tessier, L.Lemyre, L.Fillionlarning "Psixologik stress shkalasi PSM-25", A.Reanning "Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish" metodikalari hamda mualliflik so'rovnomasi "Talabalarda kasbiy identifikatsiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari" dan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Wilkokson, Spirmen, Kruskall-Uollis, Mann-Uitni, r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim dasturlari talabaning "Kasbiy ijtimoiylashuvi" hisobidan shakllantirilganligi, kasbiy motivatsiya va kasbiy rivojlanishning integrativ namoyon bo'lishi kasbiy moyillikka bog'liq ekanligi dalillangan;

talabalarning kasbiy identifikatsiyasiga shaxsiy psixologik omillar ta'siriga ko'ra "Pedagoglarni kasbiy identifikatsiyaga ijobiy tasiri", "Amalyot jarayonidagi kasbiy qaror", "O'qish davomida kasbiy yo'nalishini o'zagarishi", "Emotsional munosabat" lar bilan bog'liqligi jihatidan, barqaror shakllangan "Kasbiy identifikatsiya" talabalik davrida kasbiy tayyorgarlik darajasini kuchaytirilganligiga bog'liqligi dalillangan;

talabalarning kasbiy identifikatsiyasi rivojlanishida shakllangan stereotiplarga moyillik, professional ta'lim jarayonidagi identifikatsiyani "moratoriy" (tanlov inqirozi) vujudga keltirishi dalillangan;

talabalik davrida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda kasbiy me'yorlar va qiymatlarni o'rgatish bilan bog'liq kognitiv, refleksiv ko'nikmalar xulq-atvor komponentlarning ustuvor shakllanishiga erishish tufayli kasbiy-motivasion sohaga adaptiv ta'sir etish zarurati isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanish jarayonini tarkibiy komponentlarining o'zaro aloqadorligi va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni aniqlashtirish asosida kasbiy identifikatsiyalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanish jarayonini tekshirishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalarning modifikasion variantlari taklif etilib, aprobatsiya etilgan;

talabalik davrida kasbiy identifikatsiya jarayonini namoyon bo'lishida pedagog, psixolog va ota-onalarga taqdim etiluvchi amaliy tavsiyalar kengaytirilgan, amaliyotda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, avvalo tadqiqot ob'ektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirish va treninglarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llangani, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy identifikatsiya ta'siri natijasida talabalarda shakllanadigan ijtimoiy-psixologik kasbiy rivojlanish hamda emotsional holat o'zgarishlari borasida olingan yangi natijalarning metodologik jihatdan talabalar bilan rivojlantiruvchi ish olib borishning ilmiy jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan asoslanadi. Talabalar bilan diagnostik,

korreksion va psixoprofilaktik ishlar olib borish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar pedagogik kasbiy identifikatsiyani namoyon bo'lishi hamda oliy ta'lim sifatini oshirishning ijtimoiy-psixologik konseptual yondashuvlarni to'ldirishga yordam berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning pedagogik-psixologik amaliyotda psixologlar tomonidan psixodiagnostik va rivojlantiruvchi tadbirlarni samarali amalga oshirish hamda bakalavriat talabalari uchun "Psixologik xizmat", "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya" kabi yo'nalishlarida o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, mutaxassislar malakasini oshirish kurslari va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: «Talabalarda kasbiy identifikatsiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari» bo'yicha olingan natijalar asosida:

oliy ta'lim dasturlari talabani "Kasbiy ijtimoiylashuvi" hisobidan shakllantirilganligi, kasbga bo'lgan qiziqish va kasbiy rivojlanishning integrativ namoyon bo'lishi kasbiy moyillikka bog'liq ekanligi dalillanganligiga doir xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-367 sonli buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 11-apreldagi 12-sonli ma'lumotnomasi Natijada talabani "kasbiy ijtimoiylashuvi" hisobidan shakllantirilganligi, kasbga bo'lgan qiziqish va kasbiy rivojlanishning integrativ namoyon bo'lishi kasbiy moyillikka bog'liq ekanligi o'rganilib hamda bu bog'liqlikning nazariy asoslari ishlab chiqilishi bu sohada ishlarini nazariy va emperik o'rganish imkonini kengaytirgan;

shaxsda kasbiy ustanovkalari indikator "avtonomlik", "qarorlar qabul qilish", "rejalashtirish", "emotsional munosabat"lar bilan bog'liqligi jihatidan, barqaror shakllangan "kasbiy identifikatsiya" talabalik davrida kasbiy tayyorgarlik darajasini kuchaytirilganligiga bog'liqligini dalillanganligiga oid xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-367 sonli buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 11-apreldagi 12-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shaxsda kasbiy ustanovkalari indikator "avtonomlik", "qarorlar qabul qilish", "rejalashtirish", "emotsional munosabat"lar bilan bog'liqligi jihatidan, barqaror shakllangan "kasbiy identifikatsiya" talabalik davrida kasbiy tayyorgarlik darajasini kuchaytirilganligiga bog'liqligi differensial diagnostika va individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda muhim metodologik jihati aniqlangan;

talabalarining kasbiy identifikatsiyasi rivojlanishida shakllangan stereotiplarga moyillik, professional ta'lim jarayonidagi identifikatsiyani "moratoriy" (tanlov inqirozi) vujudga keltirishi asoslanilgan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-367 sonli buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi

Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 11-apreldagi 12-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy identifikatsiyasi rivojlanishida shakllangan stereotiplarga moyillik, professional ta'lim jarayonidagi identifikatsiyani "moratoriy" (tanlov inqirozi) vujudga keltirishi asoslanilgan yetakchi psixologik mexanizmlar sifatida identifikatsiyasilashi kengaytirilgan;

talabalik davrida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda kasbiy me'yorlar va qiymatlarni o'rgatish bilan bog'liq kognitiv, refleksiv ko'nikmalar xulq-atvor komponentlarning ustuvor shakllanishiga erishish tufayli kasbiy-motivasion sohaga adaptiv ta'sir etish zarurati isbotlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-367 sonli buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 11-apreldagi 12-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda kasbiy me'yorlar va qiymatlarni o'rgatish bilan bog'liq kognitiv, refleksiv ko'nikmalar xulq-atvor komponentlarning ustuvor shakllanishiga erishish tufayli kasbiy-motivasion sohaga adaptiv ta'sir etish zarurati sezilarli darajada mustahkamlashi samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobasiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Talabalarda kasbiy identifikatsiya namoyon bo'lishining ilmiy nazariy asoslari" masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda kasbiy identifikatsiyalanish tushunchasining mazmuni, kasbiy identifikatsiyalanish masalasining xorij olimlari tadqiqotlarida qo'yilishi, O'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash, kasbga yo'naltirish muammolariga doir

masalalarni tahliliga bag'ishlanadi. Dastlab, identifikatsiya va kasbiy identifikatsiya tushunchalarini mazmuniga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Jumladan, identifikatsiya-bu insonning shaxsiy va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish qobiliyati, shuningdek, doimiy o'zgarib turadigan tashqi dunyoda o'zining o'ziga xosligi va sub'ektivligini saqlab qolish sifatida qayt etiladi. Ayni vaqtda tadqiqot ishimizning muammosi kasbiy identifikatsiya-bu shaxsning ma'lum bir kasb vakili sifatida o'zini o'zi anglash, kasbiy guruhga mansublik hissi o'zlashtirilgan faoliyatda shaxsiy mazmuni izlash natijasi va uning me'yoriy-qadiryatlar mazmunini qabul qilish hamda bu shaxsni mutaxassis sifatida rivojlantirish uchun zarur shart (S.S.Selivanova 2020) degan nuqtai nazariga asoslangani ko'rsatiladi.

Birinchi bobning asosiy qismida xorij pedagog, psixolog olimlaridan Sh.H.Abdullayeva, N.D.Ahmedova R.Z.Asamova, Y.M.Asadov, R.H.Jo'raev, U.Inoyatov, T.Karimov, K.B.Qodirov, O.Qo'ysinov, B.Rahmonov, R.B.Rasuleva, H.F.Rashidov, H.R.Sanoqulov, N.I.Taylaqov, O'.Q.Tolipov, L.S.Tursunov, R.I.Sunnatova, kasbiy identifikatsiya muammolari kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kadrlarni tayyorlash tizimi, kasbiy shakillanish, shaxsiy-kasbiy xususiyatlar, ichki ishlar xodimlarini shaxsiy psixologik xususiyatlari, kasb tanlashga munosabat, kasbiy motiv va motivatsiya, kasbiy kompetentlik, kasbiy imij, kasbiy muvaffaqiyat, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, kasbiy stress, kasbiy mas'uliyat, kasbiy refleksiya, kasbiy zo'riqishlar kabi masalalari o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.S.Ageev, N.V.Antonova, G.Brekvell, S.A.Gaponova, N.L.Ivanova, D.A.Kartavsev, A.A.Krivoshein, S.G.Lovkov, J.J.Muskina, N.S.Pryajnikov, L.A.Yerashkov L.B.Shneyder va boshqalarning kasb tanlash, kasbiy niyatlar, kasbiy motiv, motivatsiya, kasbiy muvaffaqiyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy sohalarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari muammosi ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Xorij mutaxassislaridan E.Erikson, E.F.Zir, J.Lacan, J.Mid, J.Tyorner J.Lakan, L.B.Shnayder, O.Fenixel, Fliess, G.Teifel va boshqalar kasb tanlash, kasbiy motiv, kasbiy motivatsiyasi, kasbiy o'zini o'zi anglash, kasbiy o'zini baholash, kasbiy identifikatsiyalash sohasining tarkibiy komponentlarini namoyon bo'lishi, talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanish jarayonini shakllanishiga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiyamizda kasbiy identifikatsiya muammolari kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kadrlarni tayyorlash tizimi, kasbiy shakillanish, shaxsiy-kasbiy xususiyatlar, ichki ishlar xodimlarini shaxsiy psixologik xususiyatlari, kasb tanlashga munosabat, kasbiy motiv va motivatsiya, kasbiy kompetentlik, kasbiy imidj, kasbiy muvaffaqiyat, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, kasbiy stress, kasbiy mas'uliyat, kasbiy refleksiya, kasbiy zo'riqishlar nuqtai nazaridan izohlab berilgani birinchi bobda yoritilgan.

Kasbiy identifikatsiya shaxsning ishdagi muvaffaqiyatini belgilashda, uning o'z kasbga bo'lgan sadoqatini va unga bo'lgan ishonchini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Kasbiy identifikatsiya darajasi yuqori bo'lgan talabalar o'z ishlariga nisbatan ko'proq sadoqat ko'rsatadilar, bunda ular faqat ish bajaruvchi emas, balki kasb egalari sifatida o'zlarini namoyon etadilar. Bu esa o'z navbatida, ishdagi motivatsiyani oshiradi, shaxsning professional mahorati va samaradorligini

yaxshilaydi, natijada ishdagi muvaffaqiyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U ko'pincha quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1-jadval

Kasbiy identifikatsiya komponentlari

Kasbiy identifikatsiya komponentlari		
1	Kasbiy rol	shaxsning ishlash sohasidagi pozitsiyasi va u bajaradigan vazifalar.
2	Ishga bo'lgan munosabat	shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan yondashuvi, ishtiyoqi va emotsiyasi.
3	Malaka va bilimlar	kasbiy sohada o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikmalar va tajriba.
4	Kasbiy qadr-qimmatlar	shaxsning ishdagi axloqiy me'yorlari, prinsiplar va professional standartlarga sodiqligi.

Kasbiy identifikatsiyaning an'anaviy rivojida uchta komponent ajratib ko'rsatiladi: kognitiv (o'z guruhining xususiyatlarini bilish va uning a'zosi sifatida o'zini o'zi anglash), qadiryatli (o'z guruhini baholash va unga a'zolikka munosabat), emosional (o'z guruhini qabul qilish yoki rad etish) - bu o'z navbatida shaxisning mutaxassis sifatida rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Talabalarining kasbiy identifikatsiyasini namoyon bo'lishining empirik diagnostikasi" deb nomlangan ikkinchi bobida talabalik davrida kasbiy moyillik kasbiy identifikatsiyalanishning mezon sifatida, talabalik davrida kasbiy identifikatsiyani namoyon bo'lishiga kasbiy tayyorgarlikning ta'siri, talabalik davrida kasbiy identifikatsiyalanish va o'zini o'zi faollashtirish o'rtasidagi aloqadorlik kabi masalalar yuzasidan empirik ma'lumotlar keltirilgan.

2-jadval

A.A.Azbelning "Kasbiy identifikatsiya maqomlarini o'rganish anketasi" natijalari, jins farqlari, (Mann-Uitni mezoniga ko'ra, N=373)

Ko'rsatkichlar	Jinsi	N	O'rtacha rang	Umumiy rang	U	p
Noaniq	Ayol	24	31,10	746,50	345,50 0	,405
	Erkak	33	27,47	906,50		
	Total	57				
Taqdim etilgan	Ayol	53	62,96	3337,00	1539,0 00	,315
	Erkak	65	56,68	3684,00		
	Total	118				
Moratoriy	Ayol	51	54,48	2778,50	1452,5 00	,372
	Erkak	63	59,94	3776,50		
	Total	114				
Shakllangan	Ayol	39	39,71	1548,50	768,50 0	,908
	Erkak	40	40,29	1611,50		
	Total	79				

p<0,05*, p<0,01**, p<0,001***


Noaniq maqom (diffuz) Ayollar oʻrtacha rangi 31,10, Erkaklar oʻrtacha rangi: 27,47. Bu koʻrsatkich noaniq kasbiy identifikatsiyaga ega boʻlgan respondentlarning jinsiy farqlari sezilarli emasligini koʻrsatadi. Ayollar va erkaklar orasida kasbiy oʻzini identifikatsiya qilishda yaqqol farq yoʻq. Bu shuni anglatadiki, gender kasbiy noaniqlikka sezilarli taʼsir koʻrsatmaydi, demak, erkaklar ham, ayollar ham kasbiy identifikatsiyaning shakllanmagan bosqichida deyarli bir xil darajada turibdi.

Taqdim etilgan maqom (qabul qilingan tayyor identifikatsiya). Ayollar oʻrtacha rangi 62,96, Erkaklar oʻrtacha rangi: 56,68 ahamiyatli emas. Ayollar va erkaklar orasida tayyor kasbiy identifikatsiyani qabul qilish darajasida ham sezilarli farq yoʻq. Bu shuni koʻrsatadiki, genderdan qatʼi nazar, baʼzi yoshlar tayyor kasbiy identifikatsiyani qabul qilishga moyil, yaʼni oʻzlari mustaqil tanlov qilmasdan, oilaviy, ijtimoiy yoki boshqa tashqi omillarning taʼsiri bilan kasb tanlashadi. Jinsiy tafovutlarning yoʻqligi kasbiy yoʻnalishni tanlash jarayonida oʻxshash ijtimoiy-madaniy taʼsirlar mavjudligiga ishora qiladi.

Moratoriy maqomi (aktiv qidiruv holati) ayollar oʻrtacha rangi: 54,48, Erkaklar oʻrtacha rangi: 59,9. Bu bosqichda ham gender oʻrtasida sezilarli farq yoʻq. Ayollar ham, erkaklar ham kasbiy oʻzini anglash jarayonida faol qidiruv holatida boʻlishi mumkin. Bu bosqichda shaxs kasbiy yoʻnalishini tanlash uchun turli variantlarni oʻrganadi, oʻzini sinab koʻradi. Jinsiy farqning yoʻqligi shuni koʻrsatadiki, oʻz-oʻzini izlash va tanlash jarayoni umumiy psixologik rivojlanishning ajralmas qismi boʻlib, gender bu jarayonga sezilarli taʼsir koʻrsatmaydi.

Shakllangan maqom (mustaqil kasbiy identifikatsiya) Ayollar oʻrtacha rangi: 39,71, Erkaklar oʻrtacha rangi: 40,29 ahamiyatli farqlar mavjud emas. Ayollar va erkaklar oʻrtasida shakllangan kasbiy identifikatsiya darajasida farq yoʻq. Bu shuni anglatadiki, kasbiy oʻzini identifikatsiyalash jarayoni yakuniy bosqichga yetib kelganida, gender sezilarli rol oʻynamaydi. Shaxslar (ayniqsa yoshlar) oʻz kasbiy yoʻnalishini mustaqil ravishda tanlab, oʻziga xos kasbiy identifikatsiyaga ega boʻlishlari uchun jinsiy tafovutlar toʻsiq boʻlmaydi.

Psixologik sifat tahlili shuni koʻrsatadiki, kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi jarayonida gender omili hal qiluvchi emas. Bu jarayonni asosan ijtimoiy taʼsirlar, individual qiziqishlar, shaxsiy qobiliyat va qadriyatlar belgilaydi.



1-rasm. Talabalarning kasbiy identifikatsiyasini shaxsiy psixologik omillar taʼsiri koʻrsatkichlari (% da).

Talabalarda kasbiy identifikatsiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlashda mualliflik so'rovnomasi asosida quydagi omillar aniqlandi, 1-rasmga qarang

1-rasmda Shaxsiy psixologik omillar - Talabani o'ziga bo'lgan ishonchi, kasbiy qiziqishlari va o'ziga bo'lgan psixologik qarashlari uning kasbiy identifikatsiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, talaba o'zining kelajagi va muvaffaqiyatlariga bo'lgan ishonchni qanday shakllantirsa, kasbiy yo'nalishini aniqlashdagi motivatsiyasi ham shunday kuchayadi. Shaxsning ichki motivatsiyasi uning kasbiy qarorlarini qabul qilishda asosiy faktor hisoblanadi, chunki bu qarorlar uning kelajakdagi muvaffaqiyatiga, ish faoliyatiga bo'lgan yondashuviga va o'ziga bo'lgan ishonchiga bog'liq.

Shaxsiy psixologik xususiyatlar, masalan, o'zini anglash, kasbiy maqsadlarni aniqlash va ularni amalga oshirishga bo'lgan istak, talabalarning kasbiy yo'nalishini shakllantirishda mustahkam asos yaratadi.

3-jadval

Talabalarning oliy ta'lim kesimida statistik tahlili (Kruskall-Uollis n-373)

Ko'rsatkichlar	Oliy ta'lim muassasasi	N	O'rtacha rang	H	p
Noaniq	ADPI	21	22,79	9,672	,008**
	FDU	13	24,69		
	TerDU	23	37,11		
	Total	57			
Taqdim etilgan	ADPI	31	38,74	16,546	,000***
	FDU	35	70,63		
	TerDU	52	64,38		
	Total	118			
Moratoriy	ADPI	33	35,44	29,546	,000***
	FDU	31	79,60		
	TerDU	50	58,36		
	Total	114			
Shakllangan	ADPI	28	32,89	9,930	,007**
	FDU	23	52,11		
	TerDU	28	37,16		
	Total	79			

Izoh: p<0,05*, p<0,01**, p<0,001***

Noaniq kasbiy identifikatsiya maqomi. (H=9,672; p<0,01) ahamiyatli farqlar kuzatildi. O'rtacha ranglar ADPI (Andijon pedagogika instituti): 22,79, FDU (Farg'ona davlat universiteti): 24,69, TerDU (Termiz davlat universiteti): 37,11. Bu ko'rsatkich talabalarning oliy ta'lim muassasalari kesimida kasbiy identifikatsiyasining noaniqlik darajasida statistik jihatdan sezilarli farqlar borligini ko'rsatadi. ADPI va FDU talabalari orasida noaniq maqom yuqori, bu ularning kasbiy kelajakka nisbatan noaniqlik va ikkilanish holatida ekanligini bildiradi. TerDU talabalari orasida esa noaniqlik darajasi nisbatan past, ya'ni ular o'z kasbiy yo'lini belgilashda ancha aniqroq qarashlarga ega. Bu farqlar o'quv muassasalari madaniy

muhiti, kasbiy yo‘naltirish ishlari samaradorligi va mintaqaviy xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Taqdim etilgan kasbiy identifikatsiya maqomi (tayyor qabul qilingan identifikatsiya) ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar aniqlandi ($H=16,546; p<0,001$). ADPI: 38,74, FDU: 70,63, TerDU: 64,38 Taqdim etilgan identifikatsiya (ya‘ni, tayyor kasbiy yo‘lni qabul qilish) darajasida ham talabalar o‘qiyotgan oliy ta‘lim muassasasi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. FDU va TerDU talabalari orasida identifikatsiya yuqori, bu ularning kasbiy yo‘nalishi ko‘pincha oldindan shakllangan stereotiplar, ota-onalarning yoki ijtimoiy muhit ta‘sirida tanlanganini ko‘rsatadi. ADPI talabalari orasida esa bu ko‘rsatkich ancha past, bu yerda talabalar kasbni tanlash va identifikatsiya qilishda ko‘proq mustaqillikka intilishlari hali o‘z kasbiy yo‘nalishiga to‘liq ishonch hosil qilmagani bilan bog‘liq bo‘lishi kuzatiladi.

Moratoriy maqomi (aktiv izlanish holati) ahamiyatli darajadagi ishonchli farqlar aniqlandi. ($H=29,546; p<0,001$). ADPI: 35,44, FDU: 79,60, TerDU: 58,36 Mazkur maqomi bo‘yicha ham sezilarli farqlar mavjud. FDU talabalari eng yuqori izlanish faoliyatiga ega, ya‘ni ular kasbiy identifikatsiyasini topish jarayonida faol qidiruvda bo‘lishadi. Bu OTMda kasbiy yo‘nalish bo‘yicha tanlov va shubhalanish holatlari ko‘proq. TDU talabalari ham faol izlanish holatida bo‘lsa-da, bu FDU ga nisbatan pastroq. ADPI talabalari orasida esa izlanish darajasi ancha past, bu ularning tayyor identifikatsiyani qabul qilishga moyilligini, yoki kasbiy kelajak masalasida passiv pozitsiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi.

4-jadval

Talabalarda kasbiy identifikatsiya maqomi hamda ziddiyatli vaziyatlarda xulq atvor ko‘rinishlari bilan aloqadorligi natijalari (Spirmen-N=373)

	Raqobat	Hamkorlik	Murasasiz	Qochuvchi	Moslashuvchan
Noaniq	-,203	-,059	,316*	,684**	,164
Taqdim etilgan	,033	,147	-,088	-,193	-,066
Moratoriy	-,193	-,575(**)	,436	,257	-,215
Shakllangan	-,015	,172**	,019***	-,373	,057*

Izoh: $p<0,05^*$, $p<0,01^{**}$, $p<0,001^{***}$

4-jadvalda, A.Azbelning “Kasbiy identifikatsiya darajasini o‘rganish” hamda Tomas Kilmanning “Ziddiyatli vaziyatlarda xulq-atvor ko‘rinishlari anketasi” natijasi berilgan.

Noaniq kasbiy identifikatsiya maqomi: Murasasizlik shkalasi bilan ($r = 0.316$, $p<0.05$) ahamiyatli darajada bog‘liqlik kuzatildi. Noaniq kasbiy identifikatsiya darajasiga ega talabalar ko‘pincha murosaga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu ularning o‘z kasbiy yo‘nalishini aniq belgilay olmaganligi sababli, ziddiyatli

vaziyatlarda qat'iy pozitsiya egallashdan ko'ra, murosani afzal ko'rishini ko'rsatadi. Qochuvchanlik ($r = 0.684, p < 0.01$). Bu juda kuchli va ishonchli bog'liqlikdir. Kasbiy identifikatsiyasi noaniq bo'lgan talabalar ziddiyatli vaziyatlarda ko'pincha qochish strategiyasini tanlaydi. Ular ijtimoiy yoki kasbiy vaziyatlardan qochishga, muammodan chetlashishga moyildir.

Moratoriy kasbiy identifikatsiya maqomida esa Hamkorlik ($r = -0.575, p < 0.01$). Bu salbiy va ishonchli bog'liqlikni bildiradi. Moratoriy holatidagi talabalar (ya'ni, kasbiy identifikatsiya jarayonida ichki izlanishda bo'lgan, lekin aniq qarorga kelmagan) odatda ziddiyatlarda hamkorlik strategiyasini kamroq qo'llaydi. Murasizlik ($r = 0.436, p < 0.05$) — Moratoriy holatidagi talabalar ko'pincha murosani tanlashadi. Bu ular hali aniq kasbiy yo'nalish tanlamaganlari tufayli ziddiyatlarda qat'iy va faol pozitsiya ko'rsata olmasliklarini ko'rsatadi.

Shakllangan kasbiy identifikatsiya maqomida esa Hamkorlik ($r = 0.172, p < 0.01$) ijobiy bog'liqlik kuzatildi. Kasbiy identifikatsiyasi shakllangan talabalar ziddiyatli vaziyatlarda ko'proq hamkorlik strategiyasini qo'llashga moyil. Bu ular o'z kasbiy yo'nalishini aniq bilishlari va ijtimoiy vaziyatlarda konstruktiv yondashuvga tayyor ekanini bildiradi. Qochuvchanlik ($r = -0.373, p < 0.05$). Shakllangan kasbiy identifikatsiyaga ega talabalar ziddiyatdan qochish strategiyasini kamroq qo'llaydi. Bu ularning ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda faol va mas'uliyatli ishtirok etishlarini ko'rsatadi.

Kasbiy identifikatsiyaning shakllanish darajasi talabalarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Noaniq va Moratoriy holatidagi talabalar ko'pincha murosani yoki qochish strategiyasini tanlasa, Shakllangan identifikatsiyaga ega talabalar esa hamkorlik va moslashuvchanlikka ko'proq moyil bo'ladi, bu esa ularning ijtimoiy-psixologik yetukligini bildiradi.

5-jadval

Talabalarda kasbiy identifikatsiya maqomi va muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi natijalari (Spirman, N=373)

	Muvaffaqiyat-sizlikdan qo'rqish	Motivatsion qutb aniq ifodalanmagan	Muvaffaqiyatga umid qiluvchilar
Noaniq	,418	-,036	-,065
Taqdim etilgan	,510	-,408(**)	-,085
Moratoriy	,707	,059	,154
Shakllangan	1,000	,224	-,202

Izoh: $p < 0,05^*$, $p < 0,01^{**}$, $p < 0,001^{***}$

5-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, A.Azbelning "Kasbiy identifikatsiya darajasini o'rganish" hamda A.A.Reanning "Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish" metodikalari psixologik tahlilidan ko'rinadiki, talabalarning kasbiy identifikatsiya maqomlari bilan ularning motivatsion xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Spirman korrelyatsiya koeffitsienti asosida tahlil qilingan (N=373). Shakllangan kasbiy identifikatsiya maqomidagi talabalarda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv ko'rsatkichi maksimal darajada yuqori

korrelyatsiyaga ega ($r=1,000$). Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, o'z kasbiy yo'nalishini aniq belgilagan shaxslar muvaffaqiyatsizlik ehtimolini jiddiy qabul qiladilar, bu esa ularda yuqori darajadagi mas'uliyat hissi, ichki motivatsiya va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni erishish istagi kuchli ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ular muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori ichki turtkilar bilan harakat qiladilar, biroq natijasizlik holatlari ularda psixologik bosim keltirib chiqarishi mumkin.

Talabalarda motivatsion qutbning aniq ifodalanmaganligi bilan salbiy korrelyatsiya aniqlangan ($r = -0,408^{**}$), bu esa shuni anglatadiki, ushbu guruh vakillarida muvaffaqiyatga intilish va kasbiy motivatsiya tashqi omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, ichki ishonch va mustahkam kasbiy pozitsiya yetarlicha rivojlanmagan.

Moratoriy maqomidagi talabalar muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish bilan o'rtacha darajadagi ijobiy bog'liqlikka ega ($r = 0,707$), bu esa ushbu guruhdagi talabalar faol kasbiy izlanishda bo'lganliklari va qaror qabul qilish jarayonida muvaffaqiyatsizlik ehtimolini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlarini ko'rsatadi.

Noaniq maqomdagi talabalarda ham muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish bilan ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,418$), ammo bu holat ularning motivatsion yo'nalishi noaniq, shubhali va izchil bo'lmaganini bildiradi. Bu talabalar muvaffaqiyatga umid bildirmay, ko'proq qo'rquv va xavotir bilan harakat qilishadi.

Demak, talabaning kasbiy identifikatsiya darajasi qanchalik shakllangan bo'lsa, uning motivatsion strukturasi muvaffaqiyatga intilish kuchliroq, lekin shu bilan birga muvaffaqiyatsizlik ehtimoliga nisbatan sezuvchanlik ham yuqori bo'ladi. Aksincha, identifikatsiya darajasining noaniqligi yoki tashqi ta'sirlar asosida shakllanishi motivatsion zaiflik va psixologik beqarorlikka olib keladi.

6-jadval

Talabalarda kasbiy identifikatsiya maqomi va stress darajalari aloqadorligi natijalari (Spirmen-N=373)

Kasbiy identifikatsiya maqomi	Stressing past darajasi	Stressning o'rtacha darajasi	Stressning yuqori darajasi
Noaniq	,063	,018	,241
Taqdim etilgan	,017	,038	-,394
Moratoriy	,073 (**)	,022 (**)	,082
Shakllangan	-,067	,106	-,619(*)

Izoh: $p<0,05^*$, $p<0,01^{**}$, $p<0,001^{***}$

6-jadvalda A.Azbelning "Kasbiy identifikatsiya darajasini o'rganish" hamda Psixologik stress shkalasi PSM-25 (R. Tessier, L.Lemyre, L.Fillion) metodikalari natijasi psixologik tahlilini amalga oshirilganda quyidagi psixologik izohlar vujudga keldi. Mazkur jadvalda talabalarda kasbiy identifikatsiya maqomlari bilan ularning psixologik stress darajalari o'rtasidagi bog'liqlik Spirman korrelyatsiya koeffitsienti asosida tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra, shakllangan kasbiy identifikatsiya maqomiga ega bo'lgan talabalarda stressning yuqori darajasi bilan salbiy bog'liqlik aniqlangan ($r = -$

0,619; $p < 0,05$). Bu holat kasbiy o'zligini aniq belgilagan shaxslar yuqori stress holatlarini kamroq boshdan kechirishi, ya'ni stressga nisbatan psixologik barqarorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Ularning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari aniq, kasbiy yo'nalishda qaror qabul qilganligi stress omillariga nisbatan chidamlir bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Kasbiy o'zligini aniq belgilagan shaxslar stressga nisbatan yuqori darajadagi psixologik barqarorlikka ega ekanligi, ularning hayotdagi maqsadlari va qarorlarining aniqligi bilan chambarchas bog'liq. Buning sababi shundaki, o'z kasbiy yo'nalishini aniq belgilab olgan shaxslarlar o'zining kasbiy va shaxsiy hayotidagi qarorlarni maqsadga muvofiq ravishda qabul qiladi, bu esa ularga stressli vaziyatlarga nisbatan yaxshiroq moslashish imkonini beradi. Ular har bir qadamni maqsadga erishish uchun o'ylab va puxta rejalashtirib amalga oshiradilar.

Taqdim etilgan maqomda bo'lgan talabalar esa stressning yuqori darajasi bilan ham salbiy bog'liqlikka ($r = -0,394$) ega bo'lgan. Ushbu natija kasbiy qaror qabul qilishda tashqi ijtimoiy ta'sirlar (ota-ona, o'qituvchi, muhit) asosida tanlov qilgan shaxslarda ichki psixologik qarama-qarshiliklar va noaniqliklar mavjudligini anglatadi. Bu esa ularning stress holatlarini kuchaytirish ehtimolini oshiradi.

Moratoriy maqomida bo'lgan talabalar stressning past ($r = 0,073^{**}$) va o'rtacha ($r = 0,022^{**}$) darajalari bilan ijobiy bog'liqlikka ega bo'lgan. Bu esa ularning kasbiy izlanish jarayonida faol qatnashayotganini va bu jarayon psixologik jihatdan ularni ma'lum darajada stressga duchor qilayotganini bildiradi. Ushbu stress, ayniqsa, konstruktiv xarakter kasb etib, ularni ichki izlanish va qaror qabul qilishga undashi mumkin.

